

## “AVESTO”DAGI MIFOLOGIK OBRAZLAR VA TURKIY MIFOLOGIYAGA OID MAQOLALARINI SHARHLASH

*Dilfuza Shamsiyeva Nizomidinovna + + 97 577 27 01*

*O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti 2-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada dastlabki mifologik qarashlar va ularning turli timsollar tarzida namoyon bo 'lishi bayon etilgan. Mifologiyaning asosiy tushunchalari: totem, fetish va anima kabi tushunchalarining etimologiyasi tahlil etilgan. Zardushtiylik mifologiyasidagi ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashlar va ular turli xudo va devlar timsollilarida namoyon bo 'lishi va Avesto mifologiyasida hikoya qilingan xalq qahramonlari va ezgulik timsollari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Mif, mifologiya, totem, fetish, anima, zardushtiylik, Avesto, Ahura-Mazda, Axiraman, dev, siyovush afsonasi, kichik avesto.

«Mif»- koinot va hayotning paydo bo'lisi, tabiat hodisalari, xudolar va afsonaviy qahramonlar haqida ibtidoiy zamon kishilari tushunchalarining badiiy ifodasidir. Shunday qilib, mif deganda, eng qadimgi afsona, rivoyat, hikoyalarni tushunish mumkin. O'rta Osiyoda yashaydigan xalqlarning o'tmish hayoti bilan bog'liq miflarnig dastlabki namunalari «Avesto» kitobida uchraydi. Bu kitobda yaxshilik va yomonlik kuchlari Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima(Jamshid), Gershasp (Elikbek) timsollarida namoyon bo'lgan.

Ma'lumki, zardushtiylik mifologiyasining asosida ezgulik va yovuzlik kurashi, ya'ni dualistik tasavvurlar yotadi. Ana shu tasavvurlarga ko'ra kun bilan tunning kurashi va unda Quyoshning g'olib chiqishi dualistik motivlar asosida tasvirlanadi. "Xurshed yasht" tarkibiga kirgan alqovlar orasida aslida ana shu mifik bandlar ham bo'lgan va keyinchalik unutilib yoki yo'qolib ketgan bo'lishi kerak6.Avesta avval boshida dunyoni faqat ezguliklar majmuyi va mutanosibligi sifatida tasvirlaydi. Unda yovuzliklar, o'lim yo'q, kasalliklar yo'q. Dunyo azal va

abad porloqliklardan iborat - qorong'ulik yo'q, yoz bor, qish yo'q, ezgu niyat bor, yovuz o'y, yomonlik haqida o'ylash yo'q edi. Zardushtiylikda imonli, e'tiqodi butun va mustahkam qavm artabon, ya'ni yaratgan borligiga ishongan odam, Haqning qo'riqchisi deb ataladi. Xullas, Avesta borliq dunyoni dastlab ana shunday bir jannatiy tusda ta'riflaydi va insonni shunga munosib bo'lishga chorlaydi<sup>7</sup>. Borliq ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash maydoni deb hisoblanadi. Dastlab Ahura -Mazda faqat ezgu borliqni yaratgan. Biroq yovuzlikning bosh sababchisi va o'lim keltiruvchi devlar devi(sardori)<sup>8</sup>- Axriman barcha ezguliklarning ziddi uchun son-sanoqsiz yovuzliklar qiyofasida namoyon bo'laveradi. Axriman yovuzliklarni umumiylar tarzda o'zida mujassam etgan tushuncha Avestada Duruj(Drauga) -"Yolg'on" devi sifatida ta'riflanadi. Yolg'on(Duruj) Arta(Asha) -Haq(Haqiqat)ga qarama-qarshi qo'yiladi. Cheksiz, poyonsiz kurashlar oqibatida Axriman(uning universal qiyofasi Yolg'on) yo'q qilinadi. Haqiqat g'olib chiqib, borliqdagi barcha imonlilar behishtga(jannatga) doxil bo'ladilar.<sup>9</sup> Axrimanning yovuzliklari qatorida « Nasu» o'lim va yomonlik timsolidir. Axriman jangchilari orasida asosiy rolni devlar o'ynaydi. Bular Zardushtiylikni inkor etgan qadimiy xudolardir. Masalan, «Araska» -hasad devi, «Zarvan» -qarilik ko'rinishidagi kasallik, «Varena»-xirs, «Azy» -ochko'zlik, «Apausha» -qurg'oqchilk devi, yana «Bushyasta» -dangasalik devi bo'lib, u insonni ezgulik va din yo'lidagi harakatlaridan chalg'itadi, «Ayshma» -g'azab devi, u insonni yovuz niyatlarga chorlaydi.<sup>10</sup> Ahura-Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi. Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, Quyoshga qarab, uni olqishlab, sig'inishi shart. Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur -suv, olov, yer va havo ulug'lanadi. Avesta ta'limoti ko'pxudolik(politeizm)dan yakka xudolik (monoteizm)ga o'sib o'tish evolutsiyasini o'zida aks ettiradi. Ahura Mazda olamdagagi mavjud o'tkinchi vaqt oqimi tomonidan yaratilgan ikkita egizak ruhlarning biridir. Ahura Mazda olamdagagi barcha ezgu ishlarni, yaxshilik,

yorug'likni o'zida mujassamlashtiruvchi tangri qiyofasida gavdlantiriladi. Egizak ruhlarning ikkinchisi Anxra-Maynyu esa o'zida zulmat, qabohat, jaholat kuchlarini mujassamlashtiruvchi qudrat timsolida namoyon bo'ladi. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, dunyo sinovlardan emas, balki yovuzlikka qarshi kurashdan iborat, xolos. Ta'limotda insoniyat yashayotgan dunyo muhim hisoblanadi. Shuning uchun unda dunyoviy lazzatlardan oxirat uchun voz kechish masalalari ilgari surilmaydi.

Agar badiiy adabiyotni hayot haqiqatining ko'zgusi deb hisoblasak, mifologiya qadim asrlar qa'rida vujudga kelgan, xalq taqdiri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviy qadriyat va xalq hayot manbaidir. Ko'p asrlar davomida shakllanib kelayotgan inson ongi va tafakkurini shakllangan ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida ko'rib, aytishimiz mumkinki, mifologiya insoniyat sivilizatsiyasining shakllanishi jarayonida doimiy yangilanib turadigan, ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichlariga asoslangan voqelikdir. rivojlanish. Xalqning san'ati, madaniyati va adabiyoti (bu holda folklor) qo'shni xalqlarning madaniyati va san'atidan, shuningdek, boshqa ma'naviy qadriyatlaridan ajralgan holda rivojana olmaydi. Xalq og'zaki ijodi merosi va afsonalari insoniyatning turli tarixiy bosqichlarida turli ko'rinishlarni bosib o'tgan bo'lsa-da, ular o'zining o'ziga xosligini saqlab, murakkab va chuqurlashib, bizgacha yetib kelgan.

Shubhasiz, mifologiya mavzusi borliqni bilishdagi sirliligi, badiiy tasvirning o'ziga xosligi, tarixiy bilimlarni uzatishning mantiqiy shart-sharoitlari bilan katta qiziqish va izlanishlar uyg'otadi. Turkiy tilli xalqlar folklor an'analaridagi sirli va jumboqli buyuklikka to'la afsonaviy paradigmalarini o'rganish ulardagi miflarning estetik obrazli kuchiga urg'u beradi.

Turkiy tilli xalqlarning mifologik paradigmalarini kognitiv jihatdan o'rganishda quyidagi asosiy omillarni hisobga olish kerak:

- qadimgi turkiy mifologiyaning kelib chiqishi genezisi ijtimoiy uyg'unligini har tomonlama o'rganish antik davr afsonalari bilan ularning umumiy kelib chiqishini aniqlash;

- “Avesto” va boshqa turkiy tilli mifologiyalardan boshlab badiiy, estetik va mifologik qadriyatlarni ko‘rib chiqish;
- turkiy xalqlar folklor tarixidagi mifologik va an’anaviy davomiylikni, uning boshlanishi qadimgi turkiy mifologiyaga borib taqalishini tahlil qilish;
- o‘rta asrlar xalq og‘zaki ijodi an’analaridagi qadimgi turkiy mifologik arxetiplarni doston va memuar tarzida solishtirish;
- turkiy xalqlar folklor asarlarida folklor an’analarida diniy va afsonaviy mavzularning qo‘llanilishini aniqlash;
- estetik paradigmalar pozitsiyasidan xalq tomonidan mifologik tasvirlangan afsonaviy qahramonlarning umuminsoniy obrazi, folklor asarlaridagi hayvon va qushlarning izomorf obrazlarini o‘rganish.

Yuqorida o‘rganilgan ma'lumotlar asosida quyidagicha xulosa qilish mumkinki, avvalo, Avesta mifologiyasining shakllanishi juda uzoq tarixiy jarayonda sodir bo‘lganligi undagi mifologik abrazlar murakkab tizimni tashkil qiladi. Ibtidoiy davrdan boshlab insonlar tafakurida shakllangan asotirlar zardushtiylik diniy tizimiga kirib borgan. Shuningdek, tabiat bilan bog'liq ayrim kuchlar bilan zardushtiylik ilohiyoti tizimidagi ma'budlaming mujassamlashgangi ayrim muammolaming yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Avesta kitobi mifologik qatlamlari ezgulik va yovuzlik kuchlari o‘rtasidagi qarama-qarshilikning albatta ezgulik g’alabasi bilan tugashi kabi optimistik ruh bilan sug'orilgan. Ayni mana shu hol nafaqat zardushtiylik diniy tizimi, balki mifologik qatlamlar orqali ramziy umumlashmalarga aylangan axloqiy-falsafiy dunyonи ham qarama-qarshi qutbga, ya’ni yaxshilik va yomonlik timsollariga ajratgan. Zardushtiylik ta’limotining asosini insonni qurshab turgan olam -ikki ibtido-yaratuvchi va buzg'unchi ruhlarning kurash maydoni ekanligi yotadi. Demak har qanday yomolik jazosiz qolmasligi, oxir oqibat ezgulik dunyodagi barcha yovuz kuchlarni mahv etishi zardushtiylikdagi bosh g’oyalardandir.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev SH. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. O'zbek mifologiyasi. WWW ziyouz.com.
3. Ahmadjon Ashirov «O'zbek xalqining qadimiy etiqod va marosimlari monografiyasi»Humanities and Social Sciences/A.Navoiy nashryoti-2007.
4. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar: T.I. -T., Fan, 1968
5. Avesta: Tarixiy-adabiy yodgorlik // Asqar Mahkam tarjimasi. -T.: Sharq, 2001. -384 b., 16 b. zarvaraq.
6. ABDULLOYEV SHUXRATJON BOBOISMOILOVICH «O'rta Osiyo xalqlari diniy qarashlarida dev obrazi: shakllanishi va evolyutsiyasi»Termiz 2022.113-b.